


## V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2022- yilning yanvar-mart holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 24 259 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 4 912 ta, Xiva shahrida 2 137 ta, Xiva tumanida 1 832 ta, Urganch tumanida 2 798 ta, Xonqa tumanida 1 907 ta, Yangiariq tumanida 1 298 ta, Hazorasp tumanida 1 402 ta, Gurlan tumanida 1 621 ta, Qo‘sisko‘pir tumanida 1 867 ta, Bog‘ot tumanida 1 477 ta, Shovot tumanida 1 272 ta, Tuproqqa'l'a tumanida 563 ta va Yangibozor tumanida 1 173 tani tashkil qildi.


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi  
2022-yil yanvar – mart holatiga (jamiga nisbatan foizda)**



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (31,2 foizi), sanoat tarmog‘ida (24,4 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (23,4 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (4,1 foiz) tashkil etilgan.

2022-yilning yanvar-martrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p Urganch shahrida 31,3 birlikda, Xiva shahrida 20,6 birlikda, Yangibozor tumanida 12,4 birlikda, Urganch tumanida 12,5 birlikda, Tuproqqa'l'a tumanida 9,5 birlikda, Xiva tumanida 11,3 birlikda, Gurlan tumanida 9,9 birlikda Yangiariq tumanida 9,8 birlikda, Qo‘siko‘pir, tumanida 9,8 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 6-9 birlik oralig‘ida Xonqa, Shovot, Bog‘ot, Hazorasp tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

### **2022- yilning yanvar- mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
*(birlik, fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

	2022-yil 1 aprel holatiga ro‘yxatga olingan	2022- yil yanvar - mart	
		tashkil topdi	tugatildi
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>24 259</b>	<b>1 307</b>	<b>364</b>
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	4912	169	85
Xiva	2137	100	16
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	1477	133	25
Gurlan	1621	95	21
Qo‘siko‘pir	1867	137	19
Urganch	2798	118	24
Hazorasp	1402	128	37
Tuproqqał'a	563	35	17
Xonqa	1907	120	10
Xiva	1832	73	26
Shovot	1272	73	13
Yangiariq	1298	70	48
Yangibozor	1173	56	23

2022-yil yanvar-mart oylarida viloyatda ro‘yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 1 307 tani tashkil topgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Urganch shahrida 169 ta, Urganch tumanida 118 ta, Xiva shahrida 100 ta, Xonqa tumanida 120 ta, Qo‘siko‘pir tumanida 137 ta, Hazorasp tumanida 128 ta, Xiva tumanida 73 ta, Shovot tumanida 73 ta, Yangiariq tumanida 70 ta, Gurlan tumanida 95 ta, Bog‘ot tumanida 133 ta, Yangibozor tumanida 56 ta va Tuproqqał'a tumanida 35 tani tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 65,2 foizi (2021- yil yanvar- martrda 94,8 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2022- yilning yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 618,4 mld. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 16,1 foizi) tashkil qildi;

- 2 712,0 mld. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 98,5 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 101,6 foizi) tashkil qildi;

- 982,6 mld. so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 71,4 foizi) o‘zlashtirildi va 2021- yilning yanvar- martiga nisbatan 115,5 foizni tashkil qildi;

- 733,0 mld. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 95,0 foizi) bajarildi va 2021- yilning yanvar- martriga nisbatan 102,2 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 103,0 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 74,5 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 103,0 foizga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 96,3 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 76,3 foizi yoki 2 009,0 mld. so‘mi (o‘sish sur’asi 101,5 foiz) va xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 63,3 foizi yoki 1 388,4 mld. so‘mi (o‘sish sur’asi 111,1 foiz) shakllantirildi;

- 27,2 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 50,7 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 45,0 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi import hajmining 78,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik  
subyektlarining ulushi  
(2022- yilning yanvar- mart)**

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	2 712,0	98,5
Sanoat	618,4	16,1
Qurilish	733,0	95,0
Chakana savdo	2 009,0	76,3
Yuk tashish, <i>mln tn.</i>	5,4	91,7
Yo‘lovchi tashish, <i>mln.kishi</i>	88,2	94,7
Eksport, <i>mln. AQSh doll.</i>	27,2	50,7
Import, <i>mln. AQSh doll.</i>	45,0	78,5

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi  
(foizda)**

